

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA SHAXLOZA BOYQUZI QIZI**

**TURLI TIZIMLI TILLARDA KVANTITATIVLIK MAYDONI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Karimova Shaxloza Boyquzi qizi**

Turli tizimli tillarda kvantitativlik maydoni .....3

**Karimova Shakhloza Boykuzi kizi**

The field of quantitateness in non-related languages.....25

**Каримова Шахлоза Бойкузи кизи**

Поле квантитативности в разносистемных языках.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA SHAXLOZA BOYQUZI QIZI**

**TURLI TIZIMLI TILLARDA KVANTITATIVLIK MAYDONI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FI3499 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Farg'ona davlat universitetining veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "Ziynet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Iskandarova Sharifa Madaliyevna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Hoshimov G'anijon Mirzaahmedovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Safarov Feruz Sulaymonovich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent


**Yetakchi tashkilot:** Qo'qon davlat pedagogika instituti


Dissertatsiya hamoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «17» may soat 8:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahar, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82, e-mail: info@fdu.uz).


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (512 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «1» may kuni tarqatildi.  
(2025-yil «1» may dagi 26 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
S.M. Muminov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

  
M.T. Zokirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol. f.n., professor

  
A.G. Sabirdinov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilni zamonaviy yoʻnalishlar asosida oʻrganish barobarida til birliklarini semantik tadqiq etish, muayyan maʼnolarning turli madaniyatlardagi talqini va ifodalanish shakllarini oʻrganish muhim masalalardan biriga aylandi. Turli tizimli tillarda kvantitativlikning ifodalalanishi masalasini oʻzbek va ingliz tillari misolida tadqiq etish orqali mazkur tushunchaga xos oʻxshashlik va tafovutlarini belgilash mumkin. Kvantitativlik semasining til birliklari orqali namoyon boʻlishi har bir tilning leksik, grammatik va semantik tizimida oʻziga xos tarzda kechadi. Kvantitativlik tilning deyarli barcha sathlarida geterogen tarzda mavjud boʻlib, uni morfologik va leksik sathlarda namoyon boʻlishi asosida oʻrganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida son-miqdor tushunchasi paydo boʻlishining falsafiy, matematik va mantiqiy asoslari, son kategoriyasining morfem tahlili, kvantitativlik semantikasi muammolari tadqiqotchilar eʼtiborini tortgan. Shunga qaramay, turli tizimdagi tillarda kvantitativlik maydoni va uni tashkil etuvchi birliklar yetarlicha oʻrganilmagan. Hozirda kvantitativlik maʼnosini ifodalovchi morfologik va leksik vositalarni sathlararo qiyoslash, lingvomadaniy jihatdan oʻxshash hamda farqli xususiyatlarini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda chet tillarini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, oliy taʼlimda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dasturi asosida samarali ishlar yoʻlga qoʻyilgan. “Taʼlim sifatini oshirish – yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona toʻgʻri yoʻlidir<sup>1</sup>”. Binobarin, hozirgi kunda muayyan sohalarga tegishli muhim masalalarga ilm-fan yutuqlari asosida yechim topish ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu borada, kvantitativlik, uning tilning turli sathlarida namoyon boʻlishi va lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi, 2019-yil 29-oktabrdagi PQ-576-son “Fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari,

---

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni tatbiq etishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda olamni bir butun tizim sifatida o‘rganish hamda olamning lisoniy manzarasini chizishda sistem yondashuv ommalashgan. Bu yondashuv tilni kompleks tahlillar asosida mukammal tarzda o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, til birliklari o‘rtasidagi ma‘no munosabatlarini jamlash asnosida yuzaga kelgan “maydon” tushunchasi lisoniy birliklarni tizimlashtirishga yordam beradi. Kvantitativlik maydoni turli tillarda o‘rganilgan va o‘ziga xos yo‘nalishlarda tahlil qilingan tadqiqotlardan sanaladi.

Kvantitativlikni jahon tilshunosligida A.Xolodovich umumiy ko‘plik nazariyasini, A.P.Riftin ko‘plik shaklini, I.Sinsius tungus va manjur tillari, A.Kozin mo‘g‘ul tilidagi ko‘plik kategoriyasini, A.Menovshikov birlik va ko‘plikni ifodalash usullarini, Y.Tzyan son-miqdor tushunchasi paydo bo‘lishi, uning falsafiy, matematik va mantiqiy asoslarini, V.Igoshina son kategoriyasining morfem tahlilini, T.Tzyan<sup>2</sup> esa, kvantitativlik semantikasini o‘rgangan.

Ingliz tilshunoslari V.Leslou, J.Grinberg, H.Volterlar<sup>3</sup> son va leksik vositalar asosida miqdorni, S.Solt, N.Kartser, S.Almasian, M.Aprillar<sup>4</sup> kvantitativlikning kognitiv asoslarini, J.Fransis<sup>5</sup> tillarda jamlovchi, sanaladigan otlar va kvantitativlar (quantifiers)larning semantik xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, E.Bah, E.Jelinik,

---

<sup>2</sup>Xолодович А.А. Проблемы грамматической теории. – Л.: Наука, 1946. – С.45; Рифтин А.П. Из истории множественного числа // Вестник ЛГУ. Вып. 10, № 69, 1946. – С.35; Цинциус В.И. Множественное число имени в тунгусо-маньчжурских языках // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.46; Козин С.А. К вопросу о показателях множественности в монгольском языке // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.123; Меновщиков Г.А. Способы выражения единичности и множественности в языках различного типа // Вопросы языкознания, 1970. – С.85; Тзын Ю. Средства выражения именной количественности в современном русском языке: на фоне китайского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2004. – С.36; Игошина Т.В. Морфотемный анализ категория квантитативности в разносистемных языках: на материале русского и английского языков: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ульяновск, 2004. – С.151; Цянь Ц. Семантика квантитативности в именных группах китайского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2017. – С.12.

<sup>3</sup>Leslau W. The Expression of Number in Semitic Languages // Comparative Semitic Philology, 1950; Greenberg, J. H. Some Universals of Grammar with Particular Reference to the Order of Meaningful Elements. In Universals of Language. MIT Press. 1963. – P.73-113; Hirtle, W. H. Number and Inner Space: A Study of Grammatical Number in English. John Benjamins Publishing Company. 1982. – P.146.

<sup>4</sup>Solt, S. Q-Adjectives and the Semantics of Quantity // Journal of Semantics. 32(2), 2015. – P. 234; Katzir, N., & Ariel, M. A Few or Several? Construal, Quantity, and Argumentativity // Language and Cognition, 14(3), 2023.; Almasian, S., Bruseva, M., & Gertz, M. Numbers Matter! Bringing Quantity-awareness to Retrieval Systems / Association for Computational Linguistics. Miami, Florida, USA, 2024. – P.12124.

<sup>5</sup>Pelletier, F. J. On some proposals for the semantics of mass nouns // Journal of Philosophical Logic, 1974. – P.88.

A.Kratser, B.Partilar<sup>6</sup> kvantifierlarning sintaksisi va semantikasini tahlil qilib beradi.

O‘zbek tilshunosligida Mahmud Koshg‘ariy ot turkumiga oid so‘zlarda son kategoriyasining birlik va ko‘plik shakllarini, A.Fitrat sonlarning sifat so‘z turkumi ichida berilishini, A.G‘ulomov o‘zbek tilidagi ko‘plik shaklini, Y.Zulfiyev jamlik kategoriyasini, M.Mirtojiyev kvantitativlik urg‘usini, F.Safarov son-miqdor mikromaydonini, E.Fayzullayeva va M.Mamajonovalar kvantitativlikni kategoriya sifatida o‘rganganlar<sup>7</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarda kvantitativlik dastlab semantik-grammatik kategoriya sifatida, keyinchalik esa maydon nazariyasi asosida, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari orqali o‘rganilganligini kuzatish mumkin. Kvantitativlik borasida bunday keng ko‘lamli izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uning o‘zbek va ingliz tillaridagi maydon sifatidagi chog‘ishtirma tadqiqi dastlabkilardan sanaladi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning ifoda vositalari qiyosiy tahlili, morfologik va leksik sathlarda aks etishi hamda ularning lingvomadaniy asoslari yoritiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot Farg‘ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Tilni sistema sifatida qiyosiy tadqiq etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik maydonini tashkil etuvchi birliklarning leksik, grammatik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlik tushunchasining mohiyatini o‘rganish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikni semantik maydon sifatida tahlil qilish hamda muayyan mikromaydonlarga tasniflanishini aniqlash;

o‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlik tushunchasini ifodalovchi leksik, morfologik vositalar kesimida o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatib berish;

kvantitativlik ifodalovchi semantik birliklar: frazeologizmlar va maqollarda milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo‘lishini ko‘rsatib berish va lingvokulturologik jihatini belgilash.

**Tadqiqotning obyektini** kvantitativlik va uning o‘zbek hamda ingliz tillaridagi ifoda birliklari tashkil etadi.

---

<sup>6</sup>Bach, E., Jelinek, E., Kratzer, A., & Partee, B. H. (Eds.). Quantification in Natural Languages. Springer. 1995. – P.57.

<sup>7</sup>Kimsanboyeva B.N. Manifestation of quantitatively at the lexical level // European Jurnal of research Development and Sustainability. 2022. – B.112; Qurbonova M.M. Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 1997. – B. 26; FuloMOV A. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент: Ўздавнашр, 1944. – Б.24; Зулфиёв Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. –В.14; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.67; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайdonи ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004. – Б.125; Файзуллаева Э. Категория количественности и равноуровневые средства ее выражения в узбекском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С.13; Mamajonova M. Kvantitativlikning til birliklarini tahlil qilishdagi ahamiyati // Молодой учёный, № 3.1 (107.1) / 2016. – В.45.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik semantik maydonini hosil qiluvchi vositalarning leksik, morfologik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mavzuni yoritishda differensial-semantik, chog‘ishtirma, komponent tahlil, tavsifiy, statistik va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning morfologik, leksik va frazeologik sathlarga xos ifoda vositalari aniqlanib, mazkur tillardagi kvantitativlik maydonini hosil qiluvchi 800 dan ortiq leksik va 27 ta morfologik birliklar aniqlangan, bu birliklarning tegishli mikromaydonlardagi o‘rni asoslangan;

o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik makromaydonini tashkil etgan *narsa-predmet (borliq), o‘lchov va harakat kvantitativligi* maydonlari, ular, o‘z navbatida, *aniqlik, noaniqlik, darajalanish, uzunlik, hajm, og‘irlik, vaqt, fizik kattaliklar, butunning qismi, xotira sig‘imi, chastota va temporallik* mikromaydonlarini hosil qilishi dalillangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikning morfologik birliklari *-lar, -dor, -siz, ser-, ba-, -(ta)lab, -tacha, -lar, -larcha, -ala, -ovlon, -lab; -s, -'s, -ish, -odd, -ful, -less, -some, -fold, multi-, poly-, uni-, bi-, tri-, hemi-, semi-* kabilar ko‘plik, miqdordan ortiqlik, o‘lcham, noaniqlik, butunning qismi, chastota va jamlik ma’no-mazmunini bildirishi aniqlangan;

o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik lisoniy madaniyat belgilariga: diniy, ramziy va ijtimoiy asoslarga ega ekanligi, kvantitativlikning frazeologik birliklar, sonlar va kvantitativlar orqali namoyon bo‘lishi hamda ibora va kollokatsiyalarda eksplitsit, maqollarda implitsit ma’no ustuvorligi ochiqqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Ingliz va o‘zbek tillarida kvantitativlikning chog‘ishtirma tadqiqi orqali turli tizimli tillarning har bir til sathlarida ifodalanishi va kvantitativlik zanjirini keltirib chiqarishi aniqlangan. Kvantitativlik lingvistik maydon sifatida tahlilga tortilgan va fonetik, leksik, morfologik, frazeologik sathlarda namoyon bo‘lishining o‘ziga xosliklari berilgan. Kvantitativlik maydoni 3 ta makromaydonga hamda ular 10 ta kichik mikromaydonlarga ajratilgan va kvantitativlik semasiga ega bo‘lgan kvantitativlik maydoniga mansub bo‘lgan lisoniy vositalarning iyerarxik, sinonimik, antonimik, graduonimik munosabatlari ko‘rsatib berilgan. Kvantitativlikning turli tizimli tillarda lingvomadaniy asoslari tadqiq etilib, ularning ibora va maqollar tarkibida namoyon bo‘lishining xususiyatlari tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, ularning komponent tahlil, qiyoslash, tavsiflash, pragmatik va lingvokulturologik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK tasarrufidagi va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati, lingvistik maydon nazariyasi, lingvokulturologiya, chogʻishtirma tilshunoslik, kvantitativlik lingvistikasi borasidagi mavjud qarashlarni rivojlantirishi, oʻzbek va ingliz tillaridagi miqdor tushunchasi doirasidagi materiallarni lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishda muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy xulosalari lingvistik maydon nazariyasini taʼlimda rivojlantirishda, oliy taʼlim muassasalarida ushbu nazariyani oʻqitishga doir maxsus kurslar tashkil etishda, shuningdek, qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, stilistika, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya kabi fanlarni oʻqitishda va kvantitativlik bilan bogʻliq leksik birikmalar lugʻatini yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻzbek va ingliz tillarida kvantitativlik semantik maydonining chogʻishtirma tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

oʻzbek va ingliz tillarida kvantitativlik makromaydoni *narsa-predmet (borliq), oʻlchov va harakat kvantitativligi* maydonlarini va ular oʻz navbatida, *aniqlik, noaniqlik, darajalanish, uzunlik, hajm, ogʻirlik, vaqt, fizik kattaliklar, butunning qismi, xotira sigʻimi, chastota va temporallik* mikromaydonlarini hosil qilishi haqidagi xulosalardan Fargʻona davlat universitetida 2020-2021-yillarga moʻljallangan “UniCEN” nomli xalqaro loyiha doirasida samarali foydalanilgan. (Fargʻona davlat universitetining 2024-yil 16-dekabrda 04/7513-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha materiallari mukammallashtirilgan va ilmiy-amaliy dalillar bilan asoslanishiga erishilgan;

oʻzbek va ingliz tillarida kvantitativlik lisoniy madaniyat belgilariga: diniy, ramziy va ijtimoiy asoslarga ega ekanligi, kvantitativlikning frazeologik birliklar sonlar va kvantitativlar orqali namoyon boʻlishi hamda ibora va kollokatsiyalarda eksplitsit, maqollarda implitsit maʼno ustuvorligiga ega boʻlishi haqidagi xulosalaridan Fargʻona davlat universitetida 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan «Change academy (Oʻzgarish akademiyasi)» nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (Fargʻona davlat universitetining 2024-yil 16-dekabrda 04/7515-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha kvantitativ maʼnoli leksik birliklarning semantik munosabatlari va lingvomadaniy xususiyatlari tizimli tarzda yoritilishi asosida boyitilgan;

oʻzbek va ingliz tillarida kvantitativlikning morfologik, leksik va frazeologik sathlarda ifoda vositalari aniqlanib, oʻzbek va ingliz tillarida kvantitativlik maydonini hosil qiluvchi 800dan ortiqroq leksik va 27 ta morfologik birliklar aniqlangan va tegishli mikromaydonlardagi oʻrni asoslangani haqidagi xulosalaridan Amerika Qoʻshma Shtatlarining Oʻzbekistondagi elchixonasining 2021-2023-yillarda faoliyat olib borgan “Mindonobod Satellite Access Microscholarship Program” S-UZ800-21-GR-3126 xalqaro amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Fargʻona tumani 62-umumiy oʻrta taʼlim maktabning 2025-yil 1-yanvardagi 344-son maʼlumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-amaliy materiallar bilan boyitilishiga, uning mukammallashuviga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 12 ta, jumladan, 10 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 158 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Til tizimida kvantitativlik masalasi genezisi va uning o'rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobi ikkita faslni o'z ichiga oladi. *“Zamonaviy tilshunoslikda kvantitativlik tushunchasiga doir qarashlar”* deb nomlangan birinchi faslida jahon tilshunosligida kvantitativlik tushunchasining paydo bo'lishi, turli tizimdagi tillarda namoyon bo'lish holatlari, terminologiyasi va uni miqdor tushunchasi bilan bog'langan holda o'ziga xosliklarini belgilash haqidagi turli qarashlar tahlil qilinadi.

Miqdor va kvantitativlik tushunchalari insoniyatning til orqali olamni idrok etishida muhim o'rin tutadi<sup>8</sup>. Miqdor tushunchasi ellik ming yil avval hayot tarziga “ko'plik” va “kamlik” tushunchalarining kirib kelishi, insoniyatda dastlabki son va hisoblash haqidagi farazlar paydo bo'lishi, shartli ravishda “solishtirish”, “uzoq” va “yaqin”ni anglash holatlari, narsa va buyumlarni ayirboshlash, hisoblash hamda chegaralarni belgilash jarayonida, ahamiyat kasb etgan. Sonlar va miqdoriy tushunchalar yozuv paydo bo'lmasidan avval ham mavjud bo'lib, piktografik va logografik yozuvlarda aks etgan. Lingvistikada miqdor tushunchasi keng qamrovli bo'lib, morfologik, leksik va sintaktik darajalarda aks etadi. Miqdor ifodalanishini “kvantitativlik” atamasi orqali tushunish mumkin. Bu atama tilshunoslikda semantik maydonlar orqali tadqiq etiladi, bu esa miqdoriy munosabatlarni batafsil o'rganishga yordam beradi.

Kvantitativlik atamasi lotin tilidagi *“quantitas”* so'zidan olingan bo'lib, sifat xususiyatlarida emas, balki sonli yoki miqdoriy ko'rsatkichlarda o'lchash va tahlil qilishni anglatadi. O'zbek tilidagi tadqiqotlarda ushbu atama faol qo'llanadi. O'zbek tili lug'atlarida bu atamaga “kvantitativ – quantitas (lotincha – *miqdor*)” sifat xususiyatlarida emas, balki sonli yoki miqdoriy ko'rsatkichlarda o'lchash va tahlil qilishni anglatadi. Bu yondashuvda ma'lumotlar miqdoriy jihatdan o'lchanib,

---

<sup>8</sup>Moore E.C. Charles S. Peirce and the Philosophy of Science: Papers from the Harvard Sesquicentennial Congress. Tuscaloosa. University of Alabama Press. 2015. – P.73.

tahlil qilinadi<sup>9</sup>”, deya ta’rif beriladi. Rus tilshunosligida “*квантитативность*” miqdor tushunchasi tor doirada biror predmetning adadiga ishora etsa, kvantitativlik xohlagan turdagi obyektning miqdoriy ko‘rsatkichlarini ifodalaydi<sup>10</sup>. Ingliz tilida “kvantitativlik – *quantity* – biror (o‘lchab bo‘ladigan) predmetning miqdori yoki sonini bildiradi. Bunda miqdor sanalmaydigan otlar bilan, son esa sanaladigan otlar bilan birgalikda ishlatiladi<sup>11</sup>. Aynan shu grammatik xususiyat yordamida kvantitativlik tushunchasini oydinlashtirish mumkin, ya’ni miqdor tushunchasi biror bir obyektning adadini bildirsa, kvantitativlik xohlagan obyektning istalgan miqdoriy ko‘rsatkichlarini ifodalab keladi. Bunda, ingliz tilidagi aniq miqdoriy ko‘rsatkichlarni bevosita sonlar orqali ifoda etadi<sup>12</sup>. Noaniq ifodalar esa, *quantifiers* (*some, many, much, less, few, a few, little, a little, all, every* va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. O‘zbek tilida esa aniq miqdor son va numerativlar, noaniq miqdor maxsus leksik birliklar orqali beriladi. Bu leksik vositalar odatda ot, sifat, ravish va olmosh turkumlariga xos bo‘lib (*ba’zi, ko‘p, oz, kam, yetarli, ozroq, hamma, har bir* va boshqalar), ingliz tilidagi kvantitativlikni ifodalovchi *quantifiers*ga to‘g‘ri keladi.

Kvantitativlikni ifodalovchi vositalarni esa ingliz tilida mazkur tushunchani anglatuvchi “*quantifiers*” atamasiga ko‘p murojaat etilishini inobatga olgan holda, uning o‘zbek tildagi muqobili sifatida “*kvantitativlar*”<sup>13</sup> deb nomlashni taklif qilmoqchimiz.

Kvantitativlik miqdoriylikni o‘rganish va uni til birliklari orqali ifodalash jarayoni bo‘lib, tilshunoslikda miqdor, son va hajmga oid tushunchalarni tahlil qilish uchun muhim asos yaratadi. U turli tillarda o‘ziga xos lingvistik xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Bobning “*Jahon tilshunosligida kvantitativlik masalalari tadqiqi*” nomli ikkinchi faslida turli tillarda kvantitativlikka oid izlanishlar tahlili berilgan. Rus tilshunosligida kvantitativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘plab topiladi. Ulardan dastlab A.A.Xolodovichning umumiy ko‘plik nazariyasini yapon tili ko‘plik kategoriyasi misolida yoritib bergan. A.P.Riftin ko‘plik shaklining tarixi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. V.I.Sinsius tungus va manjur tillari, S.A.Kozin mo‘g‘ul tilidagi ko‘plik kategoriyasi masalasida tadqiqotlarni amalga oshirgan. G.A.Menovshikov turli tizimdagi tillarda birlik va ko‘plikni ifodalash usullari haqida<sup>14</sup>, Y.Tzyan<sup>15</sup> o‘z tadqiqotlarida son-miqdor tushunchasi paydo bo‘lishining falsafiy, matematik va mantiqiy asoslari haqida ma’lumot bergan.

<sup>9</sup><https://izoh.uz/word/kvantitativ> (Murojaat sanasi: 04.12.2024).

<sup>10</sup>Солнцев В.М. Лингвистическая типология. – М.: Наука, 1985. – С.34.

<sup>11</sup><https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/quantity> (Murojaat sanasi: 04.12.2024).

<sup>12</sup>Collins J., Thorne C. Collins COBUILD English Grammar 4<sup>th</sup> ed. London: HarperCollins, 2017. – P.47.

<sup>13</sup>Всеволодова М.В. Категория количественности в славянских языках: числительные и квантитативы // Вестник московского университета. Филология. № 6, 2013. – С.13.

<sup>14</sup>Холодович А.А. Проблемы грамматической теории. – Л.: Наука, 1946. – С. 53; Рифтин А.П. Из истории множественного числа // Вестник ЛГУ. Вып. 10, – № 69, 1946. – С.39; Цинциус В.И. Множественное число имени в тунгусо-маньчжурских языках // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.46; Козин С.А. К вопросу о показателях множественности в монгольском языке // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.125; Меновщиков Г.А. Способы выражения единичности и множественности в языках различного типа // Вопросы языкознания. № 1. – М., 1970. – С.85.

<sup>15</sup>Тзян Ю. Средства выражения именной количественности в современном русском языке: На фоне китайского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2004. – С.23.

T.V.Igoshina<sup>16</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotda turli tizimdagi tillarda son kategoriyasining morfem tahlili rus va ingliz tillari misolida ochib berilgan. Kvantitativlikning semantik xususiyatlari va maydon sifatida tadqiq etishga bag‘ishlangan izlanishlar I.M.Tronskiy, S.Tsyan, N.S.Chirkinyan, S.I.Krasova, K.N.Simonova, A.V.Stepanova, O.V.Lazerova<sup>17</sup> kabi olimlarning qarashlarida uchraydi.

Bundan tashqari, ingliz tilshunoslari V.Leslou, J.Grinberg, H.Volterlar<sup>18</sup> ham turli tillarda grammatik qurilmalarning umumiy jihatlarini aniqlab, son va leksik vositalar asosida miqdorni ifodalashdagi asosiy xususiyatlarini o‘rganadilar. S.Solt, N.Kartser, S.Almasian, M.Aprillar<sup>19</sup> kvantitativlikning kognitiv asoslari, semantik xususiyatlarni belgilash, zamonaviy axborotlashtirishdagi o‘rnini ko‘rsatish, eksperimental va korpus tahliliy tadqiqotlar olib borishgan. J.Fransis tillarda jamlovchi, sanaladigan otlar va kvantitativlarning semantik xususiyatlarini o‘rgansa, E.Bah, E.Jelinik, A.Kratser, B.Partilar<sup>20</sup> ilmiy maqolalar to‘plamida turli tillarda miqdor ifodalanishining o‘ziga xosliklari, kvantitativlarning sintaksisi va semantikasini tahlil qilib beradilar.

XX asrning ikkinchi yarim yilligida kvantitativlik ifodalanishining lingvokulturologik va lingvokognitiv asoslari tadqiq etila boshlandi. O.V.Slugina<sup>21</sup> o‘z tadqiqotida ingliz tilidagi she‘riy matnlarda kvantitativlik ifodalashning lingvokognitiv asoslarini o‘rgangan.

O‘zbek tilshunosligida *kvantitativlik* “*miqdor*” atamasi orqali tadqiq etilgan bo‘lib, asosan, son kategoriyasi yoki miqdor semantik maydoni asosida tahlil etilgan. Kvantitativlikka oid dastlabki tadqiqotlardan, Mahmud Koshg‘ariy<sup>22</sup> ot turkumiga oid so‘zlarda son kategoriyasining birlik va ko‘plik shakllari mavjud ekanligi, birlik “shaklsiz”, ko‘plik esa “shaklli” qismlardan tarkib topishi, fe‘l

---

<sup>16</sup>Игошина Т.В. Морфотемный анализ категория количественности в разносистемных языках: на материале русского и английского языков: Дисс. канд. филол. наук. – Ульяновск, 2004. – С.67.

<sup>17</sup>Тронский И.М. К семантике множественного числа в греческом и латинском языках // Ученые записки ЛГУ. – № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1941. – С.57; Цянь Ц. Семантика количественности в именных группах китайского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2017. – С.24; Чиркинян Н.С. Поле количественности: на материале русского и армянского языков: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ереван, 1980. – С.24; Красова С.И. Фразеологические единицы со значением количества в русском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1981. – С.16; Симонова К.Н. Функционально-семантическое поле количественности в современном английском языке в сопоставлении с русским языком: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2004. – С.23; Степанова А.В. Функционально-семантическое поле количественности в разноструктурных языках: на материале английского, русского и чувашского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Чебоксары, 2007. – С.24; Лазерова О.В. Категориальная семантика количественности в русском и испанском языках: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2010. – С.17.

<sup>18</sup>Leslau W. The Expression of Number in Semitic Languages. Comparative Semitic Philology, 1950; Greenberg, J. H. Some Universals of Grammar with Particular Reference to the Order of Meaningful Elements // In Universals of Language. MIT Press. 1963. – P.73-113; Hirtle, W. H. Number and Inner Space: A Study of Grammatical Number in English. John Benjamins Publishing Company. 1982. – P.146.

<sup>19</sup>Solt, S. Q-Adjectives and the Semantics of Quantity // Journal of Semantics. 32(2), 2015. – P. 234; Katzir, N., & Ariel, M. A Few or Several? Construal, Quantity, and Argumentativity. Language and Cognition, 14(3), 2023. – P.4; Almasian, S., Bruseva, M., & Gertz, M. Numbers Matter! Bringing Quantity-awareness to Retrieval Systems // Association for Computational Linguistics. Miami, Florida, USA, 2024. – P.12124.

<sup>20</sup>Pelletier, F. J. On some proposals for the semantics of mass nouns. Journal of Philosophical Logic, 1974. – P.88; Bach, E., Jelinek, E., Kratzer, A., & Partee, B. H. (Eds.). Quantification in Natural Languages. Springer. 1995. – P.57.

<sup>21</sup>Слугина О.В. Лингвокогнитивные основы поэтической количественности: на материале английского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009. – С.21.

<sup>22</sup>Кошғарий М. Девону луғотит турк. Т. 1-3. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.51.

birlik va ko‘plik shakllarida tuslanishi haqida ma’lumot berib, grammatik shakllarni arab tili bilan solishtirgan. A.Fitrat sonlarning sifat so‘z turkumi ichida o‘rgangan, lekin sonlarni sifat bilan taqqoslash xato ekanligini ta’kidlagan. A.G‘ulomovning “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” asari olim o‘zbek tilidagi ko‘plik shakli, asosan, morfologik usul yordamida amalga oshishini ta’kidlagan. Shuningdek, o‘zbek tilshunoslaridan Y.Zulfiyev jamlik kategoriyasi, M.Mirtojiev kvantitativlik urg‘usi, F.Safarov son-miqdor mikromaydoni, E.Fayzullayeva va M.Mamajonova, B.Kimsanboyeva kvantitativlikni kategoriya sifatida o‘rganganlar<sup>23</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan, o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi tadqiqotlarda kvantitativlikning dastlab semantik-grammatik kategoriya sifatida, keyinchalik esa, maydon nazariyasi asosida, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilganligini kuzatish mumkin.

Xullas, miqdor bilan bog‘liq tushunchalarni kvantitativlik atamasi ostida tushunish va tasniflash jahon tilshunosligida e’tiborga olingan. Uning tarkibiy guruhlari va ifoda shakllarini aniq tasnifga erishish lingvistika bilan birga, qator mantiqiy kategoriyalar bilan bog‘liq dolzarb masalalardan bo‘lib, shu asosda o‘zbek va ingliz tillari materiallarini qiyosiy tahlil etish muhimdir.

**Ikkinchi bob “O‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning ifodalanishi”** deb nomlanib, uch faslni o‘z ichiga oladi. Birinchi fasl “*O‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik maydoni*”ga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyada tilshunoslar miqdorni anglatuvchi tushunchalarni alohida toifa sifatida “kvantitativlik” deb yuritishlariga e’tibor qaratilib, unga ko‘ra ikki asosiy holatni: miqdoriylik segmentatsiyasi – aniq bir obyektning miqdori va kvantitativlik – umumiy miqdor, ixtiyoriy obyektning istalgan miqdoriy ko‘rsatkichini ifodalashi masalasini bayon etilgan. Bunday qarashlarga muvofiq aniq miqdor anglatuvchi – son orqali va miqdorning umumiy ko‘lamini belgilab beruvchi lingvistik vositalarni – fonetik, morfologik, leksik, frazeologik birliklarni ajratib olish madsadga muvofiq deb topilgan.

O‘zbek va ingliz tillarida fonetik, morfologik, leksik, frazeologik sathlarda namoyon bo‘lish imkoniyati gemogenlik munosabatini keltirib chiqarsa, har bir sathda ifoda vositalarining o‘ziga xosliklari geterogenlikni yuzaga keltiradi.

Unga ko‘ra, o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlik:

fonetik vositalar – nutqda miqdor, daraja va ko‘lamni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan fonetik vositalar, xususan, tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish, emotsional ta’sirni oshirish bilan birga, semantik darajada miqdoriy urg‘u berish vazifasini ham bajaradi. Masalan, “*juuuuuda yaxshi!*” jumlasini a’lo daraja bilan birgalikda maqtovni, “*ooozgina ovqat bor edi...*” esa shikoyat yoki norozilikni

---

<sup>23</sup>Фитрат А. Танланган асарлар, 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2012. – Б.151; Фуломов А. Ўзбек тилида кўплика категорияси. – Тошкент: Ўздавнашр, 1944. – Б.35; Зулфиёв Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – Б.79; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайdonи ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2004. – Б.32; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.86; Файзуллаева Э. Категория квантитативности и разноуровневые средства ее выражения в узбекском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С.12; Mamajonova M. Kvantitativlikning til birliklarini tahlil qilishdagi ahamiyati. Молодой учёный, № 3.1 (107.1) / 2016. – В.46; Kimsanboyeva B.N. Mahmud Koshgariyning “Devonu lugoti-t-turk” asaridagi miqdor ifodalovchi nominativ birliklar tadqiqi. Filol. fan. d-ri... diss. – Farg‘ona, 2024. – В.83.

ifodalaydi. Ingliz tilida *“I have a loooooot of work”* jumlasini orqali esa insonning charchog‘i yoki ish og‘irligi emotsional tarzda yetkaziladi. Yoki *“just a liiiittle”* degan holatda kinoya, e‘tibor yoki samimiylikni ko‘rish mumkin;

morfologik vositalar – otning son kategoriyasi o‘zbek tilida *-lar*, ingliz tilida *-(e)s* qo‘shimchalari orqali; fe‘lning son kategoriyasini ifodalovchi vositalari shaxs-son qo‘shimchalari o‘zbek tilida *-m (keldim)*, *-ng (kelding)*, *-k (keldik)*, *-ngiz (keldingiz)*, *-lar (keldilar)*, *-man (o‘qiyman)*, *-san (o‘qiysan)*, *-miz (o‘qiyimiz)*, *-siz (o‘qiysiz)*, ingliz tilida birgina *-(e)s* hozirgi zamon birlik shakli uchinchi shaxs uchun; egalik kategoriyasi o‘zbek tilida *-im/- m (kitobim)*, *-ing.-ng (kitobing)*, *-i/-si (kitobi)*, *-imiz/-miz (kitobimiz)*, *-ingiz/-ngiz (kitobingiz)*, *-lari (kitoblari)* kabi qo‘shimchalar, ingliz tilida egalik olmoshlari va *-‘s (boy’s book – bolaning kitobi)* birlik shaklida, *-s’ (boys’ book – bolalarning kitobi)* ko‘plik shaklga nisbatan qo‘llanuvchi morfologik birliklari hamda *“ser-”, “ba-”, “-dor”, “-siz”* affikslari orqali, ingliz tilida suffikslar: *-ful, -less, -some, -fold* va prefikslar: *multi-, poly-, uni-, bi-, tri-, hemi-, semi-* kabilar; o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning asosiy morfologik vositalari: son, ot, sifat, ravish va olmosh;

leksik vositalar – o‘zbek tilida raqam/sonlar, numerativlar: *hovuch, qultum, qarich, garsh, botmon, chimdim, tonna, kilo, santimetr, metr* kabilar orqali, ingliz tilida sonlar, kvantitativlar: *all, some, any, none, most, much, a lot of, enough, lots of, more, tons of, a plenty of*; juft va takroriy so‘zlar: *onda-sonda, ancha-muncha, ko‘p-ko‘p, kam-kam, olam-olam* kabilar;

frazeologik vositalar – o‘zbek tilida so‘z birikmalari – *“bir shingil”, “ikki bukulib”*; maqollarda – *Birni kessang, o‘nni ek, Besh qo‘l barobar emas*. Ingliz tilida esa idioma – *all in one, in two minds*; maqol – *Two heads are better than one, a stich in time saves nine*; kollakatsiyalar – *a thousand and one, a million times*; fe‘lli birikmalar – *pick up, take up (to take up a little amount), put on (to add a small amount)*lar orqali namoyon bo‘ladi.

Demak, kvantitativlikning turli til sathlarida o‘rganish mumkin. Bu esa kvantitativlikni maydon sifatida ko‘rib, yaxlit bir butun sistema sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Kvantitativlikni makromaydon sifatida qaraydigan bo‘lsak, u 3 asosiy maydonlarga: narsa-predmet (borliq) kvantitativligi, o‘lchov kvantitativligi va harakat kvantitativligi maydonlariga ajraladi. Ular ham, o‘z navbatida, mikromaydonlarga bo‘linadi:

narsa-predmet (borliq) kvantitativligi maydoni: aniq, noaniq va miqyos kvantitativligi mikromaydonlariga;

o‘lchov kvantitativligi maydoni: uzunlik hajm, og‘irlik, vaqt, fizik kattaliklar, butunning qismi va xotira sig‘imi kvantitativligi mikromaydonlariga;

harakat kvantitativligi maydoni: chastota va temporallik mikromaydonlariga bo‘linadi.

Kvantitativlik maydoni komponent tarkibini o‘zbek va ingliz tillarida aks ettirilishi dastlabki urinishlardan biri. Unga ko‘ra maydon nazariyasi tillarda mavjud bo‘lgan kvantitativlik tushunchasi tahlil qilindi va uning ifoda obyektlaridan kelib chiqqan holda tuzildi.

Kvantitativlik maydonining asosiy ifoda vositalarini ikki asosiy: *lisoniy* va *nolisoniy* ifoda vositalar guruhlariga ajratdik. Lisoniy vositalar leksik va grammatik vositalarda namoyon bo‘lsa, nolisoniy vositalar imo-ishora, qo‘l

harakatlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek va ingliz tillarida lisoniy vositalar qiyoslab tahlil qilinib, kvantitativlikka oid vositalari belgilandi. Bunda, maydon yadrosidan *son turkumi* joy olsa, markazidan, *ot turkumi*, *numerativlar*, *kvantitativlar*, maydon chekkasidan *sifat*, *olmoshlar*, *ravish*, *juft so‘zlar va takroriy so‘zlar* o‘rin egallaydi. Kvantitativlikning grammatik ifoda vositalari maydoniga to‘xtalar ekanmiz, ularning qo‘llanish imkoniyatlariga ko‘ra *otning son kategoriyasi* maydonining yadrosini, *fe‘lning son kategoriyasi maydon* markazidan, *egalik kategoriyasi* maydonining periferiya qismidan o‘rin egallaydi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi bobning “*O‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning leksik sathda aks etishi*” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida o‘zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning lisoniy ifoda vositalarning qiyosiy tahlili berilgan.

Kvantitativlikka xos leksik ifodalar tahlil qilinganda, ularning kvantitativlik maydonida tutgan o‘rni, qo‘llanish doirasidan kelib chiqib semantik ma‘no kasb etadi. Semantik ma‘no munosabatiga ko‘ra, kvantitativlikni ifodalovchi leksik vositalar quyidagicha guruhlanadi: 1. Son-miqdor. 2. Harakat. 3. O‘lchov. 4. Daraja.

1. Son-miqdor semantik guruhiga mansub leksemalar asosan sonlar bilan ifodalanishi bilan xarakterlanadi va ular “narsa-predmet kvantitativligi” maydoniga tegishlidir. Guruh “aniq” va “noaniq” ma‘no ifodalovchi kichik guruhlariga bo‘linadi va bevosita “aniq va noaniq kvantitativlik” mikromaydonlariga mansub leksemalarni ifodalab keladi. Ushbu leksemalar o‘zaro iyerarxik munosabatda turadi. “Aniq” ma‘no guruhiga mansub leksik vositalar son va raqamlardir. “Noaniq” ma‘no guruhiga mansublari esa, chama va jamlik sonlardan iboratdir.

2. Harakat semantik guruhiga mansub leksik vositalar vaqtga ishora etib, biror bir holatni yoki harakatni ayni bir paytda sodir bo‘lish chastotasi davomiyligi, qaytarilishi, intervalligi kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi va “harakat kvantitativligi” maydoniga tegishlidir. Guruh chastota va temporallik kichik guruhlariga bo‘linib, “Chastota va temporallik” mikromaydonlariga mansub bo‘lgan lisoniy vositalarni o‘zida aks ettiradi. “Chastota” mikromaydoniga mansub leksik vositalar o‘zaro sinonimik munosabatga ega bo‘ladilar. Masalan, o‘zbek tilida: *tez-tez*, *gohida*, *ba‘zan*, *kamdan-kam*, *doimo*, *odatda*, *hech qachon*, *ba‘zida*, *hamisha*, *muntazam*, *ko‘pincha*. Ingliz tilida esa, *always*, *usually*, *frequently*, *often*, *sometimes*, *seldom*, *rarely*, *occasionally*, *never*, *soon*, *recently* kabilarga to‘g‘ri keladi. O‘zbek va ingliz tillarida juft va takroriy so‘zlar ko‘pincha chastotani ifodalab keladi. O‘zbek tilida: *onda-sonda*, *ora-sira*, *goho-goho*, *ba‘zi-ba‘zida*, *oyda-yilda*, *goh-goh*, *yana va yana* kabi. Ingliz tilida, *again and again*, *every then and now*, *on and off*, *over and over* kabilar misol bo‘la oladi. Shuningdek, *har – every* yoki *marotaba – times* so‘zlari orqali takrorlanuvchi ish-harakatlarga ishora etish mumkin. Bu holat tillardagi o‘xshashlik sanaladi. “Temporallik” mikromaydoniga mansub bo‘lgan leksik vositalarga o‘zbek tilida *ko‘p vaqt*, *bir necha yil*, *qisqa fursat*, *bir umr*, *bir lahza*, *bir oz*, *uzoq vaqt*, *1995-yilda* kabi leksik vositalar hisoblanib, ingliz tilida *for a long time*, *for a while*, *for several years*, *for a short time*, *for a moment*, *always*, *in 1995* kabilar misol bo‘la oladi. Ushbu guruhga mansub leksik birliklar o‘zaro graduonimik munosabat shakliga egadirlar.

3. O‘lchov semantik guruhiga mansub lisoniy vositalar “O‘lchov kvantitativligi” maydonini tarkibiy qismlari sanaladi va o‘z navbatida uzunlik, og‘irlik, hajm, vaqt, maydon, butunning qismi va xotira sig‘imi kabi

mikromaydonlarga mansub kichik guruhlarga bo‘linadi. O‘zbek tilida o‘lchov semantik guruhiga mansub leksik vositalarni numerativlar tashkil etadi, ingliz tilida ular o‘lchov birliklari hisoblanadi.

Uzunlik mikromaydoniga mansub leksik vositalardan o‘lchov birliklari iyerarxik (*santimetr, ditsimetr, metr, kilometr, millimeter, mil, fut, dyum – centimeter, decimeter, meter, kilometer, millimeter, mile, foot, inch, step, fathom, span*) hisob so‘zlar (*chaqirim, quloch, qarich, qadam, qatim*) sinonimik munosabatga;

og‘irlik mikromaydoniga mansub lisoniy vositalaridan ham o‘lchov birliklari (*milligramm, gramm, kilogramm, tonna, sentner – milligram, gram, kilogram, tonne, centner*) ierarxik va hisob so‘zlar (*misqol, qadoq, botmon*) esa sinonimik munosabatga;

hajm mikromaydoniga mansub lisoniy vositalaridan ham o‘lchov birliklari (*litr, kuba metr, milliliter – liter, cubic meter, milliliter*) iyerarxik va hisob so‘zlar (*kosa, piyola, ho‘plam, paqir, qoshiq, stakan, xalta, zuvala, chekim*) esa sinonimik munosabatga;

fizik kattaliklar mikromaydoni tarkibiga kiruvchi maydon kichik semantik guruhiga mansub lisoniy vositalar (*kvadrat santimetr, kvadrat metr, kvadrat kilometr, gektar – square centimeter, square meter, square kilometer, hectare*) iyerarxik munosabatga;

vaqt mikromaydoniga mansub leksik vositalar (*soniya, daqiqa, soat, kun, hafta, oy, yil, asr, sutka, qur – a second, a minute, an hour, a day, a week, a month, a year, century, era*) iyerarxik munosabatga;

butunning qismi mikromaydonini ifodalab keluvchi lisoniy vositalar (*luqma, siqim, tilim, parcha, chimdim, harsh, qarsh, qop, chaqmoq, burda, og‘iz, qism, bo‘lak, parcha, yarim, chorak, nimchorak, ulush, bo‘lim – a bite, a handful, a slice, a piece, a chunk, a pinch, a lump, a piece of, a slice of, a portion of, half, quarter, part, section*) o‘zaro sinonimik munosabatga;

xotira sig‘imi mikromaydonini tashkil etuvchi lisoniy birliklar (*bit, bayt, megabayt, kilobayt, gigabayt, terabayt, petabayt, zettabayt, eksabayt*) o‘zaro iyerarxik munosabat shakliga egadirlar.

4. Daraja semantik guruhi narsa-predmet maydoniga kiruvchi darajalanish mikromaydoniga mansub leksik vositalarni qamrab oladi va ular o‘zaro graduonimik munosabatga ega bo‘ladilar. Guruh “me’yordan oshiq” (*katta, ulkan, sezilarli, ancha, salmoqli, ko‘p, cheksiz, sonsiz, haddan tashqari, ko‘pdan ko‘p/many, much, multiple, multitudinous, several, significant, countless, innumerable, uncounted, limitless, abundant, various, numerous, myriad, plenty, plentiful*), “me’yor” (*o‘rtacha, normal, yetarli, odatdagidek, ko‘p bo‘lmagan/medium, middle, midpoint, average, normal, ordinary, neutral, median, moderate, average-sized, medium-sized, midrange*) va “me’yordan kam” (*kam, oz, jinday, yetarli emas, bir nechta, kam sonli, cheklangan, mahdud, sezilarli emas, sanoqli, qisqa, siyrak, kichkina, kichik, ixcham, jajji/little, less, few, small, tiny, miniature, puny, wee, petite, diminutive, compact, modest, limited*) ma’no xususiyatiga ega bo‘lgan leksik vositalarni o‘z ichiga oladi.

*Umuman... sizdaqa brigadirdan voz kechish masalasini o‘ylab ko‘ramiz... faktlarimiz yetarli...* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi).

Yuqorida sanab o'tilgan kvantitativlik maydonini tashkil etuvchi semantik guruhlar aniqlik, noaniqlik, gradatsiya va nisbat kabi semantik kategoriyalarga egadirlar.

Ikkinchi bobning "O'zbek va ingliz tillarida kvantitativlik morfologik sathda aks etishi" deb nomlangan uchinchi faslida ingliz va o'zbek tillarida kvantitativlikni ifodalovchi morfologik birliklarning tahlili berilgan.

Kvantitativlikning morfem tahlilida o'zbek tilida *-lar* va ingliz tilidagi *-s* affikslarining shakl va ma'no jihatdan o'xshash jihatlari aniqlandi va har ikkala tillarda ham bu vositalar asosiy grammatik shakl yasovchi va taxmin, chama semantik ma'no xususiyatlariga egadirlar. Shuningdek, fe'ning son kategoriyasining ifoda vositalari shaxs-son qo'shimchalari o'zbek tilida *-m* (*keldim*), *-ng* (*kelding*), *-k* (*keldik*), *-ngiz* (*keldingiz*), *-lar* (*keldilar*), *-man* (*o'qiyman*), *-san* (*o'qiysan*), *-miz* (*o'qiyimiz*), *-siz* (*o'qiysiz*) shaxs-son qo'shimchalari, ingliz tilida birgina *-(e)s* hozirgi zamon birlik shakli uchinchi shaxs uchun; egalik kategoriyasi o'zbek tilida *-im/-m* (*kitobim*), *-ing/-ng* (*kitobing*), *-i/-si* (*kitobi*), *-imiz/-miz* (*kitobimiz*), *-ingiz/-ngiz* (*kitobingiz*), *-lari* (*kitoblari*) kabi qo'shimchalar, ingliz tilida egalik olmoshlari va *-s* (*boy's book – bolaning kitobi*) birlik shaklida, *-s'* (*boys' book – bolalarning kitobi*) ko'plik shaklga nisbatan qo'llanuvchi morfem birliklari ham kvantitativlikni ifodalovchi vositalar sanaladi.

O'zbek va ingliz tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali kvantitativlik ifodalash imkoni mavjud. Bu qo'shimchalar tahlilini boshqa tadqiqotlarda uchratmadik. Kvantitativlik ma'nosini yuklab keluvchi morfemalar affiksial derivatsiya holatini keltirib chiqaradi va ular odatda otdan sifat yasaydilar.

O'zbek tilida *ser-*, *ba-*, *-dor* qo'shimchalari ot so'z turkumidagi so'zlarga qo'shib, miqdordan ortiqlik ma'nosini yuklaydi. Masalan, *serg'ayrat*, *sersuv*, *serqatnov*, *sersalom*, *sermazmun*, *serdaromad*, *serma'no*, *serzarda*, *sershox*, *sermahsul*, *serunum*, *sergo'sht*, *sersoqol*, *badavlat*, *basavlat*, *bama'ni*, *baquvvat*, *bo'ydor*, *puldor*, *mazmundor*, *unumdor*, *rangdor*, *nasldor*, *mahsuldor*.

– *Bilaman, bu kunda ham Homid bilan sermuomala, oti Sodiq bo'lib, sizning qo'shingiz emasmi?* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

*-siz* qo'shimchasi inkor ma'no ifodalashidan tashqari, miqdor ifodalovchi leksik vositalar bilan qo'llanganda, kvantitativlik xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan: *sonsiz*, *sanoqsiz*, *cheksiz*.

*Ikki o'g'ilning o'z onalariga bo'lgan cheksiz ehtiromi bola-chaqalari-yu mahalla-ko'ygga yuqib, ular ham enani boshlariga ko'tarardilar* (U.Hamdam, Muvozanat).

Ingliz tilida ham kvantitativlikni ifodalovchi bir nechta affiksial birliklar mavjud.

*-ful* (*handful*, *cupful*, *fistful*, *spoonful*, *mouthful*, *armful*, *bagful*, *bowful*, *plateful*, *basketful*, *roomful*) qo'shimchasi ot so'z turkumidagi so'zlarga qo'shilganda to'liqlik, miqdorni ortiqligini ifodalaydi va ushbu so'zlar o'zbek tilidagi numerativlarga to'g'ri keladi;

*-fold* (*twofold* (*double*), *threifold* (*triple*), *tenfold*, *manifold*) suffiksi o'zbek tilidagi "baravar" so'zining ma'nosini beradi;

*-some* (*twosome*, *foursome*, *threesome*) suffiksi sonlarga yoki kvantitativlikni ifodalovchi leksik vositalarga qo'shilganda, bir necha kishi, bir nechta shaxsni nazarda tutadi;

ingliz tilida *ko'p*, *bir nechta* ma'nosida *-multi* (*multilevel, multiculture, multinational, multilingual*) suffiksi va *poly-* (*polyglot, polynomial, polysyllabic, polycentric, polyfunctional*) prefiksi qo'llanadi;

*uni-* (*univalent, unilateral, unicellular, unilingual, unidirectional, unicycle*) prefiksi birlik, jamlik ma'nosini ifodalab keladi;

*bi-* (*bilingual, bicycle, bimonthly, bifocal, binary, biped, bilateral, bicentennial, bifurcate, bigamy*) prefiksi, ikkilik ma'nosini berish uchun qo'llanadi;

*tri-* (*trilingual, tricycle, triangle, trifold, triannual*) uch miqdoriy xususiyatni yuklaydi;

*hemi-* (*hemisphere, hemicycle, hemimorphic, hemipteran*) butunning yarmini ifodalab keladi. *Semi-* prefiksi yarim (*semicircle, semifinal, semiannual*) va ikkilik (*semiannual, semimonthly, semicentennial*) ma'nolarini beradi.

Bulardan tashqari o'zbek va ingliz tillarida sonlarga qo'shib, taxmin, noaniqlik ma'nosini beruvchi *-tacha, -larcha, -ish, -odd*, jamlikni ifodalovchi *-ala, -ovlon* kabi lug'aviy shakl yasovchi suffikslar ham mavjud.

Yuqorida tahlil qilingan o'zbek va ingliz tillaridagi morfologik vositalar so'zning o'zak qismiga qo'shib, unga ko'plik, me'yordan ortiqlik, o'lcham, noaniqlik, qism, chastota kabi qo'shimcha ma'nolarni yuklab, kvantitativlikni ifodalab kelmoqda. Bu tillarning kvantitativlikni ifodalashdagi boy morfologik vositalarga ega ekanligiga ishora etadi. Mazkur tillarda so'zlarning foydalanish ko'lamini va rang-barangligini oshiradi.

Ishning uchinchi bobi **“O'zbek va ingliz tillarida kvantitativlikning lingvomadaniy asoslari”** deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Kvantitativlikning turli tizimli tillardagi lingvomadaniy tasviri”* nomli birinchi fasli kvantitativlikning lingvokulturologik xususiyatlariga bag'ishlangan.

Kvantitativlikning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda, avvalo, kvantitativlikning asosiy ifoda vositalaridan hisoblangan son va leksik vositalar, frazeologik birliklar orqali kvantitativlikning turli madaniyatlardagi talqiniga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Kvantitativlikning turli madaniyatlardagi ifodalanishini tahlil qilar ekanmiz, madaniyat bilan bog'langan va aks etadigan eng keng tarqalgan vosita raqam – sonlardir. Madaniyatlararo mutanosibliklar va o'xshashliklar ham talaygina. Shunday talqinlardan biri bu raqamlarning ilohiylashtirilishi hisoblanadi. Ilohiylashtirishda asosiy manba bu diniy qarashlardir. Diniy bilimlardan kelib chiqqan holda xalqlarning raqamlarini ilohiylashtirish holati yuzaga kelgan, bora-bora xalqlarda raqamlar bilan bog'liq bo'lgan irimlar ham paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kvantitativlikning turli madaniyatlardagi talqinida uch asosiy: diniy, ramziy, ijtimoiy yondashuvini belgilash mumkin.

Diniy qarashlarda 1 raqamining diniy asosi sifatida barcha dinda mushtarak bo'lgan yagona Allohga ishonch *“Tavhid”* va uning yakkaligiga iymon keltirish bilan bog'lanadi. Ramziy, ijtimoiy ahamiyati sifatida mukammallik, yagonalik, g'oliblik kabi tushunchalarni ham anglashimiz mumkin.

3 raqami – Islom dinida ramazon ro'zalaridan tashqari har oyning uch kuni nafl ro'zasini tutish, 3 kundan ortiq arazlashib yurish, mehmonni 3 kun izzat qilish sunnat amallardan sanaladi. 3 kunlik ta'ziya, to'y marosimlari, nikohni ma'lum

qilish holatlari ham musulmon dini uchun xos<sup>24</sup>. Xristianlikdagi “Muqaddas uchlik” markaziy diniy tushuncha hisoblanadi. Bu aqidaning diniy, ijtimoiy jihatlari, ayniqsa, Pravaslav, Kotolik, Protestantlar jamoalarida asosiy o‘ringa ega. Qurbonlik, suvga cho‘mish va duolar Muqaddas uchlik: Ota, O‘g‘il va muqaddas ruh nomidan bajariladi. Vakillarida Iso Masihning xochga parchinlanganidan so‘ng uchinchi kuni tirilishi haqidagi e‘tiqod mavjud<sup>25</sup>.

Yunon mifologiyasiga ko‘ra, mifologik qahramon Persefona uch kun muddatda yer osti dunyosida bo‘ladi, keyin yer yuziga qaytadi. Bu madaniyat vakillarida mo‘l-ko‘llik, hosilning o‘sishi kabi ma‘nolarni ifodalashda namoyon bo‘ladi. Yapon madaniyatida ham bola tug‘ilgan kundan keyin uchinchi kuni “Miya Mairi” marosimi o‘tkaziladi va ilk bor Shinto ibodatxonasiga olib boriladi, ibodat qilinadi<sup>26</sup>. Buddizm dini vakillari Tibet an‘analariga ko‘ra, o‘limdan keyingi uch kun ichida marhum qayta tug‘ilishni istaydi, deb ishonadi. Induizm dini vakillarida “Pinda Dann” marosimi ham inson o‘lgandan keyin uchinchi kuni o‘tkaziladi.

7 raqami – Muqaddas haj amallaridan hisoblangan Ka‘baning 7 marta tavof qilinishi, ko‘plab musulmon madaniyati vakillarida yetti raqamining ham ahamiyatini oshirgan. Shu sababli ham turli musulmon dini vakillarida ba‘zi holatlarning yetti raqamiga bog‘lanishini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari nasroniylarda dunyoning 7 kunda yaralishi, 7 qavat osmon tushunchalari mavjud.

40 raqami – 40 kun ro‘za, poklanish, chilla, dunyoning 4 tarafi kabi diniy asoslanishlarga ega. Musulmon xalqlarida qirq soni chilla<sup>27</sup> ma‘nosida qo‘llanadi. Chilla saqlashdan maqsad esa, odamni ehtiyotlash, poklash kabi tushunchalar asosida amalga oshiriladi. Bu hatto tabiat hodisalari bilan ham bog‘lanib, yoz va qishning 40 kunlik chillasi farqlanadi.

Raqamlarning ramziy ifodalari adabiyotlarda ma‘lum mavzu va g‘oyalarni aks ettirish uchun foydalaniladi. Dastlab bir raqamiga to‘xtalsak, odatda, bir raqami yolg‘izlik, mustaqillik, ibtido va birdamlik ma‘nolarini bildiradi va aksariyat adabiyotlarda o‘z ramziy ifodasini topadi. Turli asarlar orqali bir raqami inson yolg‘izligi, ichki kurash, shaxsiy o‘sish, jamiyatdagi o‘rni kabi sifatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Ikki raqami ramziy ma‘noda qarama-qarshilik yoki juftlikni ifodalab keladi. Asarlarda bu borada ko‘plab misollar topiladi. Har bir asarda qarama-qarshi vaziyatlar, qahramonlar asarning asosiy syujetini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ramziy ma‘no ifodalashda uch kunlik haqidagi misollar ham juda ko‘p uchraydi. Ularning aksariyati uch kunlik davr qiyinchiliklarini (sinov, kutish, sarguzasht davri) yengib o‘tish uchun sinovlarga uchraydi. Bu vaqt ichida uning qarorlariga ta‘sir qiluvchi voqealar sodir bo‘ladi. Bu davr sinovlardan o‘tish va ezgulikka erishish davri sifatida ramziy ma‘nolarni ifodalaydi. Shu qatorda adabiyotshunoslikda olamni uch o‘lchamda namoyon bo‘lishi, syujet qurilishida

---

<sup>24</sup>Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. 1-jild. – Toshkent, 1991.

<sup>25</sup>Xodjayev S.A. Uchlik timsolining ijtimoiy-falsafiy va badiiy talqini. Monografiya. – Farg‘ona: Classic, 2023. – B.40.

<sup>26</sup>Nelson J.K. Enduring Identities: The Guise of Shinto in Contemporary Japan. – University of Hawaii Press, 2000. – P.57.

<sup>27</sup><https://izoh.uz/word/chilla>. (Murojaat sanasi: 04.12.2024).

uchlik tamoyili, badiiy matnlarda uchlik voqelikning asosiy qismida namoyon bo‘ladi uch soning ahamiyatini oshiradi<sup>28</sup>.

Turli madaniyatlarda uchraydigan raqamlarga bog‘liq bo‘lgan aksariyat marosim, urf-odatning diniy asosi mavjuddir. Marosim yoki ba‘zi milliy, ijtimoiy holatlarning ma‘lum sana va kungacha davom etish holatlari, asosan, insoniyatning ong ostiga joylashgan, asrlar davomida mentalitetga singib ketgan ma‘lumot shaklida saqlanib qolgan. Diniy bilimlar va e‘tiqod natijasining ijtimoiy hayotga ko‘chishi va tatbiq qilinishining aynan raqamlar bilan bog‘liq holatlarda guvohi bo‘lib turibmiz.

Masalan, bir raqami yolg‘izlik, yagonalik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘p madaniyatlarda bir sonini shu ma‘noda “yolg‘izlik Allohga xos” qabilida odamlarning juftligi, narsalarning juft sonda bo‘lishini ma‘qul ko‘radilar. Toq sondagi narsalar yomonlik, juft esa yaxshilik ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Toq va juft sonlarning ahamiyati ham shunga bog‘liq, nazarimizda. Ko‘p xalqlarda, xususan, O‘rta Osiyoda ta‘ziya marosimlariga non yoki shunga o‘xshash olib borilayotgan narsalarning miqdori toq sonlarda bo‘lishi ma‘qul ko‘riladi. Sababi, ta‘ziya faqat bitta bo‘lsin, yana qo‘shilmasin, juft bo‘lmasin degan ma‘nolarni beradi. To‘y marosimlarida esa, narsalar olib borilishi kerak bo‘lganlari juft bo‘lishi lozim<sup>29</sup>. Yana to‘ylar bo‘lsin, yaxshi kunlar davom etsin, degan ma‘noda.

Rus va sharqiy Yevropa madaniyatlarida esa juft son yomonlik ramzi, toq son esa yaxshilik ramzi hisoblanadi. Bu madaniyatlar o‘rtasidagi katta nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va ijtimoiy hayotda bir qancha noqulayliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, tug‘ilgan kunlarda sovg‘a qilinayotgan gullarning soni toq bo‘lishi zarur. Bu guldasta tadqim qilinayotgan ayolning yagonaligiga ishora qiladi. Motam marosimlari yoki qabristonga marhumni yod etish uchun juft sondagi gul bo‘lishi kerak.

4 raqami – to‘rt soni hayotiy siklni ifodalab keladi. Sharq madaniyatida to‘rt soni asosida bahor, yoz, kuz, qish kabi fasllar almashinishi va hayotning borishini nazarda tutadilar, bu hayot, mavjudlik, boqiylik va baxt kabi tushunchalarga egadir. Bunga misol sifatida A.Navoiyning “Chordevon” kulliyotida inson umrini to‘rt faslga bo‘lib ta‘riflanganligini ta‘kidlashimiz mumkin.

Xitoy tilida to‘rt raqami (四, si) so‘zi va o‘lim so‘zi (死, si) talaffuzi juda o‘xshash. Buning natijasi o‘laroq ijtimoiy hayotda to‘rt raqamidan ushbu madaniyatda qochish, kam foydalanish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Bu madaniyat vakillari ijtimoiy hayotning har jabhasida to‘rt raqamidan foydalanmaslikka intiladi. Ko‘p qavatli binolarning to‘rtinchi qavati, to‘rtinchi raqamdagi uylari narxi arzonroq bo‘ladi. Liftda to‘rt raqami o‘rnida 3A yozuvini ko‘rishingiz mumkin. Hattoki telefon klaviaturasining to‘rt raqamidan voz kechishgan holatlar ham mavjud. Kasalxona va mehmonxonalarining to‘rtinchi xonalari bo‘lmaydi. Bu kabi holatlar orqali ular o‘lim xavfini kamaytirish, undan va yomonlikdan qochish kabi ma‘nolar bilan bog‘laydilar.

*Aomame ko‘chalarda sayr qilib yurarkan, o‘zi yashaydigan binoning to‘rtinchi qavati yo‘qligini esladi. Binoning egalari to‘rt raqami va o‘lim so‘zi*

<sup>28</sup>Йўлчиев Қ. Лирик топохронос. – Тошкент: Fan ziyosi, 2021. – Б.10.

<sup>29</sup>Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – B.155.

*o'rtasidagi o'xshashlikni hisobga olib, to'rtinchi qavatni '3A' deb belgilashgan edi. Bu Yaponiyada keng tarqalgan odat edi (H.Murakami, 1Q84).*

Lingvokulturologik jihatdan diniy, ramziy va ijtimoiy yondashuvlarning turlicha ekani til bilan birga unga munosabatni ham tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, toq va juft narsa-buyumlar, uch yoki to'rt raqamlar bilan bog'liq holda shakllangan tushunchalarni kognitiv-konseptual tahlilga tortish bugungi kun zamonaviy tilshunosligining amaliy ahamiyatini yanada dolzarblashtiradi.

*"O'zbek va ingliz tillarida kvantitativlikni ifoda etuvchi frazeologik birliklar"* nomli ikkinchi faslda o'zbek va ingliz tillari frazeologizmida kvantitativlikning namoyon bo'lish masalasi yoritiladi.

O'zbek va ingliz tillarida miqdor konseptli frazeologizmlar ifoda usuliga ko'ra, son komponentli frazeologik birliklar, leksik vositalar va kvantitativlar orqali ifodalangan frazeologik birliklarga ajratiladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikni ifodalovchi son komponentli frazeologizmlar quyidagilardan iborat:

Bir soni – o'zbek tilida: *bir bahya qoldi – oz qoldi; bir boshga bir o'lim – inson faqat bir marotaba o'ladi; bir boshini ikki bo'lmoq – ko'paymoq, uylanmoq; bir burda bo'lib qolmoq – ozib kichkina bo'lmoq; bir ishi ikki bo'ldi – bir ishi ikkitaga oshdi, ko'paydi (salbiy ma'noda); bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq – bir ish bilan ikkitasini hal qilmoq, bir ko'ylak et – ortiqcha vaznli; Xudo bitta bo'lsa., bir tiyin, sen ham bir og'izdan chiqadi, siz ham.*

ingliz tilida: *all in one, one in a million – millionning biri, noyob, one too many, one of a kind – mingtadan bitta, the only one – yagona, one and the same – birga bir (o'xshash), one by one – bir boshdan, one of many – noyob.*

Ikki soni – o'zbek tilida: *ikki bukilib – ortiqcha darajada; ikki dunyo bir qadam – baribir, farqsiz; ikki enlik – qisqagina; ikki gapning birida – qayta-qayta; ikki og'iz – ozgina, andak; ikki shingil – ozgina, ozroq; ikki tug'ilib, bir qolgani – o'ta qimmatli, qadrli; ikki tomchi suvday – o'xshash; ikki dunyo bir bo'lganda – hech qachon, aslo; ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – tiqilinch qilish, behuda qaysarlik.*

ingliz tilida: *two of a kind / two peas in a pod – ikki tomch suv, two's company – ikkilik juftlik, cut in two – arra qilmoq, two-fold – ikki hissa, in two minds – ikki yo'l orasida qolmoq, put two and two is together – ikki karra ikkidek, two heads are better than one – ko'pdan qochib qutilmas.*

Uch soni – o'zbek tilida: *uch-to'rt og'iz – ozgina, kamroq;*

ingliz tilida: *three's a crowd – uchinchi ortiqcha, three strikes – uch urinish, third time's a charm – uchinchi omad, three cheers – uch karra olqish, three-ring circus – sirkka aylantirmoq (tartibsizlikka yo'l qo'ymoq), three-legged race – uch oyoqlab yugurish (to'rt oyoqlab ketdi), at the third stroke – uchinchi urinish (uchinchisi puchinchisi).*

To'rt soni – o'zbek tilida: *to'rt gapning birida – ikki gapning birida – tez-tez; to'rt ishkali but – boy, yetarlicha daromadga ega; to'rt og'iz – oz-moz, biroz; to'rt ellik – ikki ellik – ozgina;*

ingliz tilida: *four eyes – sinchiklab tekshirish, birgalikda yaxshiroq; four corners of the earth – to'rt tomoning qibla.*

Besh soni – o‘zbek tilida: *besh qo‘l barobar emas – teng emas; besh barmog‘(i)day – atroflicha, batafsil; besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq – ortiqcha hirs; besh battar – yomon holatlarning oshishi; besh kunlik dunyo – qisqa dunyo, oz fursat yashamoq; besh-olti og‘iz gap – bir nechta gap; besh-olti qovun pishig‘i – anchagina vaqt, besh-olti yil; besh-olti ko‘ylakni ortiq yirtmoq – tajribasi ko‘p; ishi besh – a‘lo.*

ingliz tilida: *high five – beshni ol (kaft urib tabriklamoq), take five – qisqa tanaffus, fifth wheel – ortiqchalik qilmoq, into the five and dime – arzon, xalq uchun mo‘ljallangan xarid.*

Olti soni – o‘zbek tilida: *olti og‘izdan olti xil gap – turli munosabatlar; oyog‘i olti qo‘li yetti – juda, astoydil harakat qilmoq.*

ingliz tilida: *six feet under – kinoyaviy tarzda vafot etganni vafot etganlikni ifodalash, at sixes and sevens – alg‘ov-dalg‘ov(tartibsiz), sixth sense – ichki sezgi.*

Yetti soni – o‘zbek tilida: *yetti pushti – bir necha bo‘g‘in ajdodlari; yetti qovun pishig‘i – bir necha yil muddat; yetti xuftongacha – ancha vaqtgacha; yetti yoshdan yetmish yoshgacha – katta-kichik, barcha; yetti yot begona – umuman begona;*

ingliz tilida: *seven-year itch – uzoq yillik turmushdan charchash, seventh heaven – baxtning cho‘qqisi, lucky seven – baxt elchisi (omadli raqam), dressed to the sevens – ziynat bilan kiyingan.*

O‘n soni – o‘zbek tilida: *o‘n gulidan bir guli ochilmagan – yosh, kichik yoshli; o‘n kulib, bir gapirmoq – xushchaqchaq; o‘n og‘iz – yetarlicha, oz emas;*

ingliz tilida: *ten out of ten – mukammal, top ten – eng yaxshi o‘ntalik, ten to one – eng katta ehtimol bilan (aniq), ten a penny – juda ko‘p (qadrsiz).*

O‘zbek tilidagi aksariyat bir son komponentli frazeologik birikmalar tahlil qilinganda, qo‘llanish doirasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, paradoks holda bir vaqtning o‘zida ham birlik ham ko‘plik ma‘nolarini ifodalab, oppozitsion holatlarni keltirib chiqarishi aniqlandi. *Bir etak bola – a world of, three score and ten – besh kunlik dunyo* misolida. Deyarli barcha son komponentli frazeologik birliklarda eksplitsit ma‘no yuqoriroq turadi. Iboralar tarkibidagi sonni miqdoriga qarab kontekstda kamlik yoki ko‘plikka ishora etadi. Masalan, *bir-ikki og‘iz, uch-to‘rt og‘iz, besh-olti og‘iz gap* kabi iboralar.

Bobning “Kvantitativlikning o‘zbek va ingliz tillaridagi xalq maqollarida qo‘llanishi” deb nomlangan faslida kvantitativlikni ifodalovchi maqollar tahlil qilingan.

Kvantitativlikni ifodalovchi maqollarda, asosan, raqam, sonlar va hisob so‘zlar, kvantitativlar ishtirok etadi. Sonlardan bir, ikki, besh, yetti raqamlari maqollarda faol qo‘llangan. Bundan tashqari ko‘p, oz leksemalari yordamida ham turli ma‘no kasb etadigan maqollar ham yetarlicha. O‘zbek va ingliz tillarida bir xil mazmun xususiyatga ega bo‘lgan maqollarning muqobillarini topilib, guruhlashtirilganda:

– mulohaza mazmunidagi maqollar: *Yetti o‘lchab, bir kes/A stitch in time saves nine;*

– mas‘uliyat va mas‘uliyatsizlik haqidagi maqollar: *Dunyoda bir ko‘ngilchak o‘lar, bir – erinchak/Two wrong’s don’t make a right;*

– vaqt va fursat qadri haqida maqollar: *Bir kun burun sochsang, hafta burun o‘rasan/Take care of the minutes, and the hours will take care of themselves;*

– ehtiyotkorlik va ehtiyorkorsizlik haqida: *Berishda bir sana, olganda – ikki*  
*/An ounce of prevention is worth a pound of cure.*

– dehqonchilik va chorvachilik mazmunidagi maqollar: *Birni kessang, o‘nni*  
*ek/ One year’s seeding makes seven years’ weeding.*

Kvantitativlikni ifodalovchi *ko‘p, kam, oz va kam* leksemalar ishtirokidagi maqollar ham talaygina topiladi. Ulardan miqdor mazmuni anglashilib turadi va kamdan kam yashirin ma’noga ega bo‘lishi kuzatiladi. O‘zbek tilida: *Oz bo‘lsin-u soz bo‘lsin; Og‘riqqa emchi ko‘p; Sihat tilasang, ko‘p yema, Izzat tilasang ko‘p dema; Suvning o‘zi ham bir balo, ko‘pi ham bir balo; Hosiling kam bo‘lsa, havodan ko‘rma; Moli ko‘pning mo‘li ko‘p; Ota-onaning dog‘i – oz-moz, farzand dog‘i tinch qo‘ymas; O‘ylasang, qayg‘u ko‘p, o‘ylamasang, qayg‘u yo‘q.*

Ingliz tilida kvantitativlik leksik vositalar, kvantitativlar orqali ifodalangan maqollar: *Many hands make light work – Ko‘p qo‘l ishlasa, ish yengil bo‘ladi; The more, the merrier – Ko‘proq odamlar bo‘lsa, ko‘proq quvonch bo‘ladi* kabilar kiradi.

Kvantitativlikning mazmuni xalq maqollarida miqdor, me’yordan ortiqlik-kamlik, tartib va mulohaza o‘rnida ishlatilib, xalq donishmandligining noyob durdonalari sanaladi. Ular tarkibida turg‘unlashgan birliklar eskirib, hozirgi kunda ishlatilmay qolgan til birikmalarini ham saqlaydi. Bu esa tilning kumulyativlik vazifasini mustahkamlaydi. Masalan, *Ahmoqqa To‘y tepa bir tosh; Tentakka Quva bir tosh.* Bu o‘rinda “tosh” so‘zi hozirgi kunda qo‘llanilmay qolgan uzunlik o‘lchov birligi sanaladi. Shuningdek, *To‘k desang, bir botmon to‘kadi, Birniki mingga, mingniki tumanga* maqollari tarkibidagi *botmon, tuman* so‘zlari ham hozirgi kunda faqatgina shu birikmalar tarkibidagina uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, kvantitativlikni ifodalovchi til birliklari lingvomadaniy tushunchalar bilan nihoyatda mustahkam aloqador bo‘lib, ularda shu xalqqa tegishli bo‘lgan dunyoqarash, munosabat va milliy mentalitet belgilari ustuvorlik qiladi.

## XULOSA

1. Kvantitativlik masalasi tilshunoslikka son, miqdor, o‘lchov-daraja tushunchalari tadqiqi doirasida olib borilgan izlanishlarni umumlashtirib, yaxlit tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ilmiy paradigmada muhim o‘rin tutadi. Turli tizimli tillarda kvantitativlik tushunchasining ilmiy asosini tadqiq etish lingvistik ahamiyat bilan bir qatorda lingvokulturologik, etnolingvistik hamda pragmatik ahamiyat kasb etadi.

2. Kvantitativlik lingvistik tahlillarda maydon nazariyasi asosida tahli qilish maqsadga muvofiq. Dunyo tillarining aksariyatida kvantitativlik tilning fonetik, morfemik, leksik, frazeologik hamda morfologik sathlarida namoyon bo‘ladi.

3. Kvantitativlik makromaymaydoni o‘z ichida maydonlarni hosil qiladi. Ularning asosiylari sirasiga narsa-predmet, o‘lchov va harakat kvantitativligini kiritish mumkin, mazkur maydonlar kichik ma’noviy guruhlariga bo‘linadi.

4. Kvantitativlik o‘zbek tiliga lotin tilidan rus tili orqali o‘zlashgan bo‘lib, ingliz tilida atama sifatida faol. O‘zbek tilshunosligida kvantitativlik atamasi nisbatan kam qo‘llanadi. Xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi tadqiqotlarda kvantitativlik dastlab semantik-grammatik kategoriya sifatida, keyinchalik esa

lingvistik maydon jihatdan tadqiqqa tortilgan. Turli tizimli tillarda bu tushuncha bilan bog‘liq lingvokulturologik jihatlarni qiyosiy tadqiq etish dolzarbdir.

5. Kvantitativlik son-miqdor, temporallik, o‘lchov va miqyos kabi semantik guruhlarga bo‘linadi. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikning morfologik birliklari *-lar, -dor, -siz, ser-, ba-, -(ta)lab, -tacha, -lar, -larcha, -ala, -ovlon, -lab; -s, -'s, -ish, -odd, -ful, -less, -some, -fold, multi-, poly-, uni-, bi-, tri-, hemi-, semi-* kabilar ko‘plik, miqdordan ortiqlik, o‘lcham, noaniqlik, butunning qismi, chastota va jamlik ma’no-mazmunini bildiradi.

6. O‘zbek va ingliz tillarida ham kvantitativlikning morfologik belgilari, asosan, ot, son, sifat, olmosh, ravish turkumidagi birliklar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Bunda son turkumiga xos shakllar maydon yadrosidan, ot turkumi, numerativlar, kvantitativlar maydon markazidan, sifat, olmosh, ravish turkumlari, juft va takroriy so‘zlar esa maydon periferiyasidan joy oladi.

7. Kvantitativlik lingvokulturologik jihatdan g‘arb xalqlarida aniqlik, muayyanlik, sharq xalqlarida ko‘proq metaforik yoki falsafiy asosga ega bo‘ladi. Turli lisoniy madaniyat belgilari raqamlar, ular ishtirokidagi birikmalar va turg‘un birikma, ya’ni frazeologizmlarda aks etadi.

8. Kvantitativlikni ifoda etuvchi frazeologik birliklar asosiy ikki: son komponentli frazeologik birliklar, leksik vositalar va kvantitativlar orqali ifodalangan frazeologik birliklarga bo‘linadi. Son komponentli frazeologik birliklarning aksariyatida eksplitsit ma’no ustun turadi va miqdor ifodalanayotgan birlikning bevosita frazeologizm tarkibidagi sonning qimmatiga bog‘liq bo‘ladi.

9. Tillarda miqdor ma’nosini ifoda etuvchi ayrim birliklar alohida lingvokulturologik ma’noga ega bo‘lib, buning asoslari diniy, ramziy va ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Sonlar lingvomadaniyatiga ta’sir etuvchi mazkur omillar orasida diniy e’tiqod ta’siri yuqori hisoblanadi.

10. Kvantitativlikning mazmuni xalq maqollarida miqdor, me’yordan ortiqlik-kamlik, tartib va mulohaza o‘rnida ishlatilib, ularda xalqqa tegishli bo‘lgan dunyovarash, munosabat va milliy mentalitet belgilari ustuvorlik qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

---

**FERGANA STATE UNIVERSITY**

**KARIMOVA SHAKHLOZA BOYKUZI KIZI**

**THE FIELD OF QUANTITATIVENESS IN NON-RELATED LANGUAGES**

**10.00.06 – Comparative literature, contrastive linguistics and translation studies**

**ABSTRACT**

**of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Fergana – 2025**

The theme of PhD dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.2.PhD/Fil3499.

The dissertation has been prepared at Fergana State University.  
Dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of Fergana State University and on the website of "Ziyonet" informational-educational portal (www.ziyonet.uz).

**Scientific supervisor:** **Iskandarova Sharifa Madalievna**  
Doctor of Philology, Professor

**Official opponents:** **Hoshimov Ganijon Mirzaahmedovich**  
Doctor of Philology, Professor

**Safarov Feruz Sulaymonovich**  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organization:** **Kokand State Pedagogical Institute**

Defense of the dissertation will take place on «14» 05 2025, at 8:00 at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University (Address: 105, B.Marghinoniy Str, Fergana, 100151. Tel: (+99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz.


The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under № 512). Address: 19, Murabbiylar Str., Fergana, 100151. Tel: (+99873) 244-44-94.

The abstract of the dissertation is distributed on «1» 05 2025.  
(Mailing report № 26 dated «1» 05 2025).



  
**S.M.Muminov**  
Chairman of the Scientific Council on  
Awarding scientific degree,  
Doctor of Philology, Professor

  
**M.T.Zokirov**  
Scientific Secretary of the  
Scientific Council on awarding  
Scientific degree, Candidate of  
Philological Sciences, Professor

  
**A.G.Sabirdinov**  
Chairman of the Scientific  
Seminar at the Scientific Council on  
awarding scientific degrees,  
Doctor of Philology, Professor

## INTRODUCTION

### (Abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

**The actuality and significance of the dissertation work.** In world linguistics, along with the study of language with the help of modern sciences, semantic research of language units, the study of the interpretation and forms of expression of certain meanings in different cultures have become one of the important issues. By studying the problem of the representation of quantitiveness in non-related languages on the example of the Uzbek and English languages, it is possible to identify similarities and differences in the representation of this concept. The representation of the seme of quantitiveness by the means of language units occurs in a unique way in the lexical, grammatical and semantic system of each language. Quantitiveness exists heterogeneously at almost all levels of the language, and its study based on its manifestation at the phonetic, morphological and lexical levels is of significant scientific and practical importance.

In world linguistics, the philosophical, mathematical and logical foundations of the emergence of the concept of number and quantity, the morpheme analysis of the category of number, and the problems of the semantics of quantitiveness have attracted the attention of researchers. Nevertheless, the field of quantitiveness and its constituent units in non-related languages have not been sufficiently studied. Currently, cross-level comparative study of morphological and lexical means representing the meaning of quantitiveness, discovering linguoculturally similar and different characteristics are one of the actual issues.

In our country, special attention is paid to the study of foreign languages. In particular, effective work is carried out on the basis of the program for training highly qualified personnel in higher education. “Improving the quality of education is the only right path towards the development of New Uzbekistan”.<sup>30</sup> Therefore, finding solutions to important issues related to certain fields on the basis of scientific achievements is of great importance today. In this regard, quantification, its representation at different levels of the language, and highlighting the linguistic and cultural features are important.

The present research work serves, to a certain extent, in the implementation of the tasks set forth in the following normative-legal documents: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017 “On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan”; the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5712 dated April 29, 2019 “On the Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019 “On the Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; the Resolution of the President of the

---

<sup>30</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

Republic of Uzbekistan No. PQ-3775 dated June 5, 2018 “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Education Institutions and Ensure Their Active Participation in the Broad Reforms Being Implemented in the Country”; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-576 dated October 29, 2019 “On Science and Scientific Activities”; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5117 dated May 19, 2021 “On Measures to Bring the Activities of Promoting the Study of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a New Qualitative Stage”; the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated December 20, 2022; and other normative-legal documents.

**Compliance of the research with the priorities of the republic’s science and technology development.** This dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

#### **The scope of study of the problem.**

Nowadays, the systematic approach to studying the world as a whole system and drawing the linguistic picture of the world has become popular. This approach allows for a thorough study of language based on complex analysis. At the same time, the concept of “field”, which arose during the accumulation of semantic relations between language units, helps to systematize linguistic units. The field of quantitateness is one of the phenomena studied across different languages and analyzed in specific directions.

In world linguistics, within the framework of quantitateness the following studies have been carried out: A.Kholodovich – on the general theory of plurals, A.P.Riftin – on the plural form, I.Sinsius – on the Tungusic and Manchu languages, A.Kozin – on the category of plurals in Mongolian, A.Menovshikov – on the methods of expressing singularity and plurality, Y.Tzyan – on the philosophical, mathematical and logical foundations of the emergence of the concept of number and quantity, V.Igoshina – on the morpheme analysis of the category of number, and T.Tzyan – on the semantics of quantitateness.<sup>31</sup>

English linguists W.Leslau, J. Greenberg, H.Wolters<sup>32</sup> studied quantity based on numerical and lexical means, S. Salt, N.Katzir, S.Almasian, M.Ariel<sup>33</sup> studied

---

<sup>31</sup>Холодович А.А. Проблемы грамматической теории. – Л.: Наука, 1946. – С.45; Рифтин А.П. Из истории множественного числа // Вестник ЛГУ. Вып. 10, № 69, 1946. – С.35; Цинциус В.И. Множественное число имени в тунгусо-маньчжурских языках // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.46; Козин С.А. К вопросу о показателях множественности в монгольском языке // Ученые записки ЛГУ. № 69 (Серия филологических наук, вып. 10), 1946. – С.123; Меновщиков Г.А. Способы выражения единичности и множественности в языках различного типа // Вопросы языкознания, 1970. – С.85; Тзян Ю. Средства выражения именной количественности в современном русском языке: на фоне китайского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2004. – С.36; Игошина Т.В. Морфотемный анализ категория квантитативности в разносистемных языках: на материале русского и английского языков: Дисс. ...канд. филол. наук.– Ульяновск, 2004. – С.151; Цянь Ц. Семантика квантитативности в именных группах китайского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2017. – С.12.

<sup>32</sup>Leslau W. The Expression of Number in Semitic Languages // Comparative Semitic Philology, 1950; Greenberg, J. H. Some Universals of Grammar with Particular Reference to the Order of Meaningful Elements. In

the cognitive bases of quantitateness, J.Francis<sup>34</sup> studied semantic features of collective, countable nouns and quantifiers in natural languages, while E. Bach, E. Jelinek, A. Kratzer, B. Partee<sup>35</sup> analyzed syntax and semantics of quantifiers.

In Uzbek linguistics, Mahmud Koshgari studied singular and plural forms of the category of number in nouns, Abdurauf Fitrat studied the representation of numbers within adjectives, A.Gulomov researched the plural form in the Uzbek language, Y.Zulfiev investigated plural category, M.Mirtojiev carried out investigations in the field of emphasis in the quantitateness, F.Safarov studied the microfield of number and quantity, E.Faizullaeva and M.Mamajonova researched quantitateness as a category<sup>36</sup>.

